

BOLAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING INNOVATSION KASBIY MAHORATINI OSHIRISH MUAMMOLARI

Turg'unova Xumora Xusniddin qizi

O'zbekiston - Finlandiya pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yo'nalishi magistratura talabasi

Humoraturgunuva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14778104>

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim dasturlari bilan birga ish olib borish hamda innovatsion yangiliklar, o'z kasbiga tegishli zamonaviy bilim va axborotlardan xabar topish kerakligi to'g'risida so'z olib boradi. O'qituvchining kasbiy mahorati, umuman olganda pedagoglarga tegishli bo'lgan mahoratlar majmui to'g'risidagi fikrlar mujassamlashgan. Maqolada kasbiy mahoratni oshirish va rivojlantirish uchun turli usullar va vositalari hamda metodlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy ta'lim, boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining innovatsion kasbiy mahorati, metod, innovatsiya, standart, mahorat, kasbiy mahorat, qobilyat, takt.

Hozirgi kunda barchamizga ma'lum bo'lgan zamonaviy innovatsion ta'lim butun respublikamizdagi barcha muassasalarda, ya'ni maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keying ta'lim jarayonlarida keng tadbiiq qilinmoqda. Ta'lim jarayoni sifatini oshirish yurtimizning gullab yashnashi, shu bilan birgalikda dunyodagi rivojlangan davlatlar safiga kirishi, ilm-fan sohasida yetakchi davlatlar qatoridan o'rin olishi uchun zamin yaratadi. Ta'lim olish jarayoni maktab ostonasiga ilk qadamini qo'ygan kundan, ya'ni boshlang'ich sinfligidan boshlanadi. Shunday ekan biz fikrimizni boshlang'ich ta'lim o'qituvchining faoliyatiga diqqatimizni qaratamiz.

Kundan kun yangilanib, rivojlanib borayotgan borayotgan zamonimizda ta'lim sohasiga juda kata e'tibor hamda talab qo'yilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'lim-tarbiya to'g'risida bir qancha mazmunli gaplarni aytib o'tganlar, misol tariqasida shu jumlasini keltirib o'tishimiz mumkin, "Agar mendan sizni nima qiynaydi? deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman". Bu fikrlar ta'lim fidoyilari sonini yanada ortishiga sabab bo'la oladi. O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida Prezident Sh.M.Mirziyaev ma'naviyat haqida quyidagi tarifni keltirdi: "ma'naviyat -insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va etibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda manaviyat - jamiytdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir".

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahorati shu bilan birgalikda innovatsion kasbiy mahoratini rivojlantirish, ta'lim sohasining rivijlanishi bo'yicha qo'yilgan eng dastlabki qadam bo'ladi. O'qituvchi o'z kasbiy mahoratini rivojlantirish, o'z ustida ko'proq ishlash, zamon talablariga mos kadr bo'lishi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lishi lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarning dastlabki kunidan boshlab ta'lim - tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi sharaflil kasb egalaridir. Shunday ekan o'qituvchida ularda bilim, kasbiy mahorat, innovatsion texnologiyalar yuqori darajada shakllangan bo'lishi lozim. Kasbiy mahorat nafaqat boshlang'ich sinf o'qituvchisida, balki barcga pedagoglarda bo'lishi talab etiladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisida innovatsion kasbiy mahoratning yuqori darajada shakllanishi bu uning eng kata yutug'I dekas hech mubolag'a

bo'lmaydi. Chunki bunda o'qituvchi o'quvchilar bilan birga ishlashi uchun hamda ularning bilim salohiyatini oshirishi uchun bir yo'l hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalar mavzuning yanada aniq va tushunarli bo'lishi uchun eng yaxshi vosita sanaladi. Innovatsion kasbiy mahoratda yangi, zamonaviy metodlar qo'llash, o'quvchilar bilan hamkorligini oshiradi.

Mahorat ("mahorat" - mohirlik, ustalik, epcillik) – bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o'ta mohirlik bilan bajarish.

Kasbiy mahorat – pedagogning pedagogik jarayoni, tashkiliy, metodik, ruhiy va subyektiv jihatdan o'ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish hamda boshqarish qobiliyati va malakasiga egaligi.

Kasbiy mahorat – pedagogik jarayonda tarkib topadi. Bu ancha keng tushuncha hisoblanib uning tarkibiga bir qancha jarayonlar kiradi. O'qituvchida kasbiy mahorat bilan birga kasbiy qobiliyat ham bo'lishi kerak. Olimlarning uzoq yillar olib borgan ilmiy tadqiqotlari va kuzatishlari natijasida pedagogik qobiliyatning quyidagi asosiy sifatleri ajratib ko'rsatilgan:

1. O'z kasbiga muhabbat, o'quvchilarni seva olishi.
2. Mutaxassislik fanini mukammal bilishi, unga qiziqishi.
3. Pedagogik taktga (odob va go'zallikka) ega bo'lish.
4. Bolalar jamoasiga singib keta olish.
5. O'z mehnatiga ijodiy yondashish.
6. Javobgarlikni his etis.

7. Tarbiyaviy bilimlarni egallaganligi. Bu qobiliyatlar har bir pedagog, ya'ni bo'lajak boshlang'ich boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilishi lozim. Bo'lajak o'qituvchida yuqorida ta'kidlangan sifatlar mujassam bo'lsagina haqiqiy o'qituvchi bo'la oladi. Yuqorida keltirilgan sifatlar har bir bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisiga kerakli bo'lgan asosiy vazifalardir.

Pedagogik qobiliyatda o'qituvchining o'zaro fikr almashuvi bilan bog'liq xususiyatlari asosiy rol o'ynaydi. Quyidagi pedagogik qobiliyatlar pedagogik – psixologik bilimlar natijasida doimiy shakllanib boradi:

- Kommunikativ qobiliyat
- Perseptiv qobiliyat
- Empatik qobiliyat
- Didaktik qobiliyat
- Tashkilotchilik qobiliyati
- Konstruktiv qobiliyat
- Bilish qobiliyati

Quyidagi qobiliyatlar har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisiga tegishli bo'lgan asosiy qobiliyatlar hisoblanadi. Boshqacharoq aytganda bu qobiliyatlar boshlang'ich sinf o'qituvchisining formasi desak ham hech mubolag'a bo'lmaydi.

Pedagogik kasbiy mahorat tizimi quyidagi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan asosiy komponentlardan iborat:

1. Pedagogik insonparvarlik talablariga bo'ysunishi.
2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish.
3. Pedagogik qobiliyatga ega bo'lish.
4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi yosh avlod qalbi kamolotining me'mori, yoshlarga ta'lim – tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlarni g'oyaviy – siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonunlarini o'rgatadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining innovatsion kasbiy faoliyatini oshirishning yana bir usullaridan biri bu o'qituvchi so'nggi yangilik, adabiyotlardan ta'lim – tarbiya jarayonidagi qonun va qarorlardan, yangi metod va didaktik vosita va usullardan doimo xabardor bo'lib turmog'i lozim. Bu usul innovatsion mahoratning eng samarali va sinalgan metodlari hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahoratini oshirishning yana bir muhim vositasi bu uning nutqidir. O'qituvchining nutq ravonligi katta ahamiyatga ega. Chunki nutq o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi aloqani hamkorlikni ta'minlovchi vosita. Ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun eng katta qurol bu uning nuqti bo'ladi. Har qanday o'qituvchi o'zining individual nutq madaniyatiga ega bo'lishi zazor, nutqda quyidagi xususiyatlar aks ettirilishi lozim.

- A) Nutqning to'g'riligi;
- B) Nutqning aniqligi;
- C) Nutqning ifodali bayon etilishi;
- D) Nutqning ravonli;
- E) Nutqning boyligi.

Innovatsion kasbiy mahoratning yana bir muhim jihati bu uning zamonaviy metodlar bilan mujassamlanishidir. Metodlar bu darsning eng dolzarb nuqtalarini aks ettirish uchun ko'makchilar bo'ladi. Metod (yunon. “usul”, “yo'l”, “maqsadga eltuvchi”) degan ma'nolarni bildiradi. Shunday ekan dars innovatsion tashkil topishi uchun yana bir vositasi bu metod sanaladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi qanchalik samarali hamda zamonaviy metodlar bilishi va uni amalda qo'llay olishi uning katta yutug'i bo'lishini bilishi shart. Metodlar ham darsning qismlariga mos tarzda tanladi. Agarda dars va metod o'rtasida moslik bo'lmasa bu yerda hech qanday maqsadga erishilmaydi. Shunday ekan o'qituvchi darsga hamda mavzuga munosib metod tanlashi bu uning ijodkorligidan dalolat beradi. Misol tariqasida bir nechta misollar keltiramiz. “Aqliy hujum”, “Idrok xaritasi”, “Davom ettir”, “Assesment”, “Nima uchun” bu kabi metodlar shular jumlasiga kiradi. Olima Alkarova F.N. O'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini faollashtirish vaziyatlari o'quv- biluv jarayonini oldindan loyihalashtirish imkonini beradi deb hisoblaydi va o'z fikrini rivojlantirib, “Metodlar, usullar yig'indisi va ularning izchilligi qo'yilgan maqsadga erishish uchun o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini faollashtirish jarayonlarini muayyan maqsadga yo'naltirib: o'qituvchi va o'quvchilarning sub'ekt-sub'ekt munosabatlari; o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorlikka asoslangan ko'ptomonlama aloqalari; o'quvchilarning mayllari va ehtiyojlariga yaxlit tarzda ta'sir ko'rsatish; o'quvchilarning hissiy-ixtiyoriy hamda kognitiv sohalarini rivojlantirish; o'quvchilarning bilimlarini oldindan loyihalashtirish; o'z-o'zini baholash va teskari aloqa imkoniyatlaridan foydalanish; o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini faollashtirishga urg'u berish uchun qulay pedagogik shart-sharoitlarni yaratadi,” deb takidlaydi. Alkarova F.N.. ilmiy tadqiqot ishida tadqiq etilayotgan muammoning yechimini topish davrida o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini faollashtirish vaziyatlarini tashkil etishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modelini taklif etgan.

Boshlag'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion kasbiy mahoratini oshirish uchun bir qancha muammolarni hal bartaraf etish kerak.

O'quv rejasini loyihalash: bu usul innovatsion ta'limni oshirish orqali o'quv dasturini qayta ishlab chiqish.

Kasbiy rivojlanish seminarlari: Seminarlar va treninglar taklif qilish o'qituvchilar uchun sessiyalar hisoblanadi.

Texnologiyalar integratsiyasi: O'qituvchiga birlashtirish, raqamli vositalar va platformalar ta'lim dasturlari muhim ahamiyatga ega. Shunga qaramay, stajyorlar texnologiyani yaxshi bilishi va bu vositalardan foydalanishga qodir bo'lishi kerak. Bu tizim innovatsion mutaxassislarni ko'paytirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash uchun muhim.

O'zgarishlarga qarshilik: Innovatsion o'qitish usullari va yondashuvlar ko'pincha qarshiliklarga duch keladi. O'qituvchi nomzodlari, professor -o'qituvchilar an'anaviy o'qitish usullari bilan qarshilikni yengib innovatsion madaniyatni tarbiyalash mumkin.

Resurslarning etishmasligi: O'qituvchilarni tayyorlash dasturlarida texnologiya, ta'lim resurslari va o'quv materiallari yetishmasligi kuzatiladi.

O'qituvchilar uchun yetarlicha tayyorgarlik ko'rmaganligi: innovatsiyalar bo'yicha yetarli darajada tayyorgarlik ko'rishi, eng so'nggi ta'lim texnologiyalaridan xabar xabardor bo'lishi, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun samarali bo'ladi.

Nazariya va amaliyotni muvozanatlash: Bunda nazariy bilimlar bilan amaliy ko'nikmalarni muvozanatlash talab etiladi.

Baholash va baholash: Baholash uchun innovatsion vosita va texnikalar dam foydalanish, malaka ko'nikmalarni o'lchash orqali ishlab chiqish kerak. Shunga o'xshash bir nechta muammolarga dush kelishimiz mumkin.

Bo'lajak o'qituvchilarga avvalo, kasb mahorati va uni qanday qilib shakllantirish mumkinligi to'g'risida shakllantirish mumkinligi to'g'risida ma'lumotlar berish maqsadga muvofiqdir. Barchamizga ma'lumki, kasb mahorati o'qituvchida kasb mahorati yillar davomida shakllanib takomillashadi. O'qituvchining kasbiy mahorati amaliy va uslubiy tajribaga ega bo'lishi uchun asosiy zamin ish faoliyati jarayonida shakllanadi. Kasb mahorati o'ta murakkab milliy xususiyatga ega jarayon bo'lganligi bois, uni egallash o'qituvchining uzoq yillar samarali izlanishlari, ijodkorlik mehnati evaziga ro'yobga chiqadi.

Shunday ekan o'qituvchining innovatsion kasbiy mahorati bir yoki ikki yo'l bilan amalga oshadigan jarayon emas. Yuqorida ta'kidlagan bir nechta usul va yo'nalishlar mazvuning ko'lamini yoritib beradi. Bu borada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida zamonaviy ta'lim, innovatsion texnologilardan xabardor qilish, axborot kommunikatsiyani rivoj toptirish boshlang'ich sinf o'qituvchisining eng oldi o'rinlarda turuvchi vazifalari deb aytish mumkin.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyayevning O'zbekiston Respublikasini 2022-2026 yillarda taraqqiyot strategiyasi haqidagi ma'ruzasi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Tashkent 2021y. 267 b.

2. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Tashkent 2021y. 267 b.
3. A'zam xoliqov "Pedagogik mahorat"
4. <https://arxiv.uz>
5. L. Kameron, Tillarni o'rgatish yosh o'quvchilar. Buyuk Britaniya: Kembrij Universitet nashriyoti, 2001 yil.
6. Ravshan Ishmuhamedov, Maqsudjon Yuldashev - "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar" - o'quv qo'llanma. Toshkent-2013

